

NUTQNING VERBAL VA NOVERBAL KO'RINISHI

Pardayev Sirojiddin Shokir o'g'li,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute assistenti
Pardayevsirojiddin3108@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqning verbal va nonverbal ko'rinishlari haqida so'z yuritilgan. Nonverbal aloqaning turlari, ularning og'zaki nutqdagi ahamiyati, shu jumladan nutqni buzuvchi omillar haqida fikr yuritib o'tilgan. Bundan tashqari aloqa jarayonida vujudga keluvchi to'siqlar, uni bartaraf etish yo'llari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Verbal, nonverbal, individual to'siq, etnotipik to'siq, madaniyat, qadriyat, optik-kinetik, ekstralingvistik, vizual.

AĞIZDAN VE AĞIZDAN OLMAYAN BESLENME

Pardayev Sirojiddin Şokir oğlu,
Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü asistanı

Özet. Bu makalede sözlü ve sözsüz konuşma biçimleri tartışılmaktadır. Sözsüz iletişimin türleri, konuşmadaki önemi, konuşmayı bozan faktörler ele alınmaktadır. Ayrıca iletişim sürecinde ortaya çıkan engeller ve bunların aşılması yolları detaylı olarak ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler. Sözlü, sözsüz, bireysel bariyer, etno-tipsel bariyer, kültür, değer, optik-kinetik, dil dışı, görsel.

ВЕРБАЛЬНОЕ И НЕВЕРБАЛЬНОЕ ПРОЯВЛЕНИЕ РЕЧИ

Пардаев Сироджиддин Шокир оглы,
ассистент Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются вербальные и невербальные формы речи. Обсуждаются виды невербальной коммуникации, их значение в устной речи, в том числе факторы, искажающие речь. Кроме того, подробно рассматриваются препятствия, возникающие в процессе коммуникации, и пути их преодоления.

Ключевые слова. Вербальный, невербальный, индивидуальный барьер, этнотипический барьер, культура, ценность, оптико-кинетический, экстралингвистический, визуальный.

VERBAL AND NONVERBAL APPEARANCE OF SPEECH

Pardayev Sirojiddin Shokir oglu,
assistant at the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. This article discusses verbal and nonverbal manifestations of speech. The types of nonverbal communication, their importance in oral speech, including factors that disrupt speech, are discussed. In addition, the barriers that arise in the communication process and ways to overcome them are discussed in detail.

Keywords. Verbal, nonverbal, individual barrier, ethnotypical barrier, culture, value, optical-kinetic, extralinguistic, visual.

O'zaro kommunikatsiya ikki kishining o'zaro munosabatlari asosida amalga oshadi va ularning har biri kommunikant sifatida aloqa subyekti hisoblanadi. Aloqa subyektlari bir-birini

xabardor qilish vazifasini bajarish mobaynida yo'llayotgan xabarning kelib chiqishi, sabablari, aniqlik darajasini hisobga oladi. Chunki nutqiy aloqaga kirishishdan ko'zlangan asosiy maqsad – bu murojaat qilishdir. Bu holatni subyektlararo jarayon sifatida baholash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, uzatilgan axborotlarga javoban yangi ma'lumotlar olinadi, o'zlashtiriladi [1, 375-376 b.].

Aloqa jarayonida ma'lumotlar shunchaki uzatilmaydi, balki bu jarayonda aloqa subyektlarining faol harakati talab etilib, bu har ikkala tomon uchun ham muhim hisoblanadi. Demak, insonlar nafaqat ma'nolarni almashishadi, balki ularga intilishadi ham. Kishilar o'zaro ma'lumot almashishda belgilar tizimi orqali hamkorlik jarayonida bir-biriga ta'sir o'tkazadi va sherigining xatti-harakatiga o'zgartirish kiritishi ham mumkin. Bundan kelib chiqadiki, belgilar ma'lum maqsadlarga yo'nalgan bo'lib, kommunikantlarning holatlarini o'zgartiradi. Bu esa kommunikativ ta'sir deb yuritiladi. U qanchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, aloqa samaradorligi ham yaxshi bo'ladi. Bu o'z-o'zidan psixologik jarayon bilan bog'liq [2, 628 b.].

Aloqa jarayonida ma'lumotni yo'naltiruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (adresant) shaxs o'rtasida bir xil yoki o'xshash dekodlash tizimi yaratiladi va bu tizim ularning o'zigagina tushunarli bo'ladi. Bir-birini tushunishda hamma bir xilda so'zlash shartiga asoslanish yuqori samara bermaydi. Chunki inson har qanaqa axborotni o'zaro almashishi mumkin va bu aloqa subyektlarining barchasiga aniq bo'ladi. Biroq faqat qadriyatlar tizimini o'zaro almashish natijasida esa sheriklar bir-birlarining hayot tarzi va xarakter-xususiyatlarini ham o'zlashtiradi va yanada yaxshi tushunish imkoni paydo bo'ladi.

O'zaro kommunikativ aloqa jarayonida aloqa to'siqlari ham paydo bo'lishi mumkin. Bu holat ham bevosita psixologik xarakter kasb etadi.



Bizningcha, aloqa to'siqlari ikki xil bo'ladi:

1. Individual to'siqlar ikki aloqaga kirishuvchi sheriklarning shaxsiy munosabatlari (bir-biriga yoqmaslik, tashqi ko'rishishning ma'qul kelmasligi, ovozning, gapirish ohangining, nigohlar va shu kabilar) o'zaro mos kelmasligi natijasida hosil bo'ladi.

2. Etnotipik to'siqlar millatlararo madaniyat, an'ana, qadriyatlarining o'zaro mos kelmasligi natijasida paydo bo'ladi.

Demak, aloqaning samaradorligi faqatgina nutqiy tajribaga emas, balki mental tuzilish, madaniy kelib chiqish bilan ham bog'liq ekan.

Madaniy aloqalarning ikki turi mavjud: Verbal va noverbal aloqa. **Verbal** (og'zaki) aloqa inson omili ta'sirida og'zaki nutq, nutq tovushlari, fonetik belgilar tizimi, leksik va sintaktik birliklar tamoyillari asosida amalga oshadi. Bu jarayonda nutq eng muhim omil bo'lib, xabar uzatishda reallik saqlanishi bilan xarakterlanadi. Bir turdagi madaniyatni aloqa yo'nalishiga uzatishda xabar shaklida haqqoniy yetkazish muhim hisoblanadi. Chunki har bir madaniyat o'zining tarixi, ichki tuzilishiga ega bo'ladi. Nutqiy modelda madaniy matnlardan foydalanish nutq samaradorligini oshiradi, bir qarashda ularni aniqlab bo'lmasa-da, sekinlik bilan o'zgarish namoyon bo'ladi [3, 34-47 b.].

Axborotga singdirilgan madaniyat, odatda, harakatchan, ya'ni dinamik xususiyat kasb etadi. Ma'naviy faoliyat esa madaniy faoliyatga nisbatan kam dinamik hodisa sanaladi. Ular

yordamida matnlar ham son, ham mohiyat jihatdan boyiydi. Masalan, XIX asr O'rta Osiyo madaniyatini misol tariqasida oladigan bo'lsak, uning tarkibiga O'rta Osiyo xalqlarining umummilliy xususiyatlari, turmush sharoitlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, adabiyot, san'at va shu kabi ko'plab yo'nalishlardagi xabarlar bu turdagi matnlar sonining ortishiga sabab bo'ladi.

Lebdovanning tadqiqotlarida og'zaki aloqaning to'rt me'yori belgilab berilgan:

- 1) Tog'ridan-to'g'ri va bilvosita;
- 2) Badiiy va qisqa;
- 3) Shaxsiy va vaziyatga xos;
- 4) Instrumental va ta'sirchan [4, 78 b.]

Noverbal (og'zaki bo'lmagan) aloqa ham o'z navbatida bir nechta tizimlardan tashkil topadi:

1) Optik-kinetik noverbal aloqada imo-isholarlar, yuz ifodasi, pantomimalar orqali amalga oshadi. Mazkur tizimda inson tana a'zolaridan ko'zlar, yuz, lab, qo'llar faol ishtirok etadi, ular orqali mavjud madaniy borliqni to'laroq anglash imkoni tug'iladi. Optik-kinetik tizim nutq vositalarisiz qo'llanilganda mohiyat noaniq bo'ladi, bunday holatlar, ko'pincha turli madaniyat vakillarining aloqa jarayonida hosil bo'ladi [5, 178 b.].

2) Juftlik va ekstralingvistik noverbal aloqada, asosan, og'zaki shaklda amalga oshiriladi. Unda vokalizatsiya, intonatsiya, tovush tembi ritmi, ohangi, nutqiy pauzalar, qolaversa, yig'lash, xo'rsinish, yo'talish, tabassum qilish nutqiy aloqaning mukammalligini ta'minlaydi. Ular nutqqa yaqin usullar bo'lib, uzatilayotgan madaniy axborotning semantik boyishiga xizmat qiladi.

3) Makon va zamonni tashkil etish kommunikativ vaziyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Unda axborot qabul qiluvchining diqqatini tarqoq holga keltiruvchi holatlarni tartiblash tushuniladi. Masalan, nutq so'zlayotganda kimningdir baland poshna kiygan holatdagi qadam tovushlari, sahna ortidagi shovqinlar ham samarali aloqaga putur yetkazadi. Jamoada ikki kishini bir-biriga qarshilantirish natijasida ham aloqa hosil qilish mumkin. Bunday holatlar eksperimental natija keltirib chiqaradi [6, 10-33 b.].

4) Vizual noverbal aloqa ham o'ziga xos belgilar tizimi bo'lib, kommunikatsiya jarayonida ko'z bilan aloqa qilish tushuniladi. Bu bevosita psixologiya sohasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, vizual idrok yordamida yuzaga chiqadi. Og'zaki muloqotni mukammallashtirishda ko'z qarashlari, uning harakat chastotasi, davomiyligi, statika va dinamikasi muhim hisoblanadi. Bu orqali aloqani davom ettirish yoki to'xtatishga undash mumkin. Qolaversa, aloqa jarayonida axborot uzatayotgan subyektning rost yoki yolg'on ma'lumot berayotganligini aniqlash mumkin bo'ladi [7, 249-250 b.].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, madaniyat kommunikatsiya jarayonining bir bo'lagi bo'lib, u orqali aloqa ishtirokchilari o'zaro qadriyatlar silsilasini almashishadi, nutqiy ko'nikmalarini, hayotiy tajribalarini orttirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ebert, C. Kultursemiotik am Scheideweg: Leistungen und Grenzen des dualistischen Kulturmodells von Lotman / Uspenskij // Forum für osteuropäische Ideen- und Zeitgeschichte. –2002. – No 6(2). – 34-47 pp.
2. Hess-Lüttich, E.W.B. Spatial turn: on the concept of space in cultural geography and literary theory. Meta – carto – semiotics // Journal for Theoretical Cartography. – 2012. – No 5. – P. 19; Nöth, W. Yuri Lotman on metaphors and culture as self-referential semiospheres // Semiotica. –2006. – No 161. – 249–250 pp.; Ruhe, C. La Cité des poètes: Interkulturalität und urbaner Raum. – Würzburg: Königshausen, 2004. – 10-33 pp.
3. Kristeva J On Yuri Lotman // PLMA: Publications of the Modern Language Association. – 1994. – No 109(3). – 375–376 pp.
4. Lotman, Y.M. Universe of the Mind: A Semiotic Theory of Culture, trans. Shukman A. – Bloomington, IN: Indiana University Press, 1990. – P. 178.
5. Nöth, W. Yuri Lotman on metaphors and culture as self-referential semiospheres // Semiotica. –2006. – No 161. – P. 151.

6. Schönle A., Shine, J. Introduction. In: Schönle A (ed.) *Lotman and Cultural Studies: Encounters and Extensions*. – Madison: University of Wisconsin Press, 2006. – 13–14 pp.
7. Вернадский В.И. Биосфера. I-II. – Л.: Научное химико-техническое издательство. Научно-технический отдел В.С.Н.Х, 1926. – 628 с.
8. Normo‘minov, S. T. (2023). Til tizimi va so‘z turkumlari paradigmasida yadro-periferiya munosabatlari haqida. *2016 no. 6 (100/1)*, 100(66), 5-10.
9. Erbutayeva, S. U. (2021). About some auxiliary words in Uzbek language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 1294-1300.
10. Kamol o‘g‘li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).
11. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.
12. Alikulova, D. O., & Pardayev, S. S. (2024). Increasing students' vocabulary by using didactic games and interactive methods in teaching synonyms. *Journal of Science, Research and Teaching*, 3(12), 15-18.